
Buvayda tumanida Xalqaro nogironlar kuni munosabati bilan imkoniyati cheklangan tumandoshlarimiz uchun bayram tadbiri tashkil etildi

Bugun Buvayda tumanidagi "Istiqlol" tantanalar majmuasida 3 dekabr - Xalqaro nogironlar kuni munosabati bilan imkoniyati cheklangan fuqarolarimizni yana bir bor qo'llab-quvvatlash maqsadida bayram tadbiri tashkil etildi.

Tadbirni kirish so'zi bilan ochib bergan Tumanimiz hokimi Behzodjon Ibragimov, Davlatimiz rahbari boshchiligida mamlakatimizda imkoniyati cheklangan fuqarolarni qo'llab-quvvatlash, ular uchun zarur barcha sharoitlar yaratilayotgani, ularning jamiyatdagi mavjud imkoniyatlardan foydalanish, sog'liqni saqlash, ta'lim, bandlik, siyosiy-ijtimoiy hayotda ishtirok etish bilan bog'liq huquqlari ta'minlanayotgani, bu borada tumanimiz aholisining barcha qatlamlari uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilayotganligini ta'kidladi.

2023-12-04 13:39:43